



BASTAKOR XURSHIDA XASANOVANING KOMPOZITORLIK USLUBI FORTEPIANO ASARI MISOLIDA

Reymbaeva Ramuza

O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi "Cho'lg'u
ijrochiligi" kafedrası 1-bosqich magistranti

Muxammedjanova Zaxro

Ilmiy rahbar O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi Professori.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19060295>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-mart 2026 yil
Ma'qullandi: 15-mart 2026 yil
Nashr qilindi: 17-mart 2026 yil

KEYWORDS

*emotsiya, fortepiano,
miniatyura, fantaziya, badiiy
obraz, ijrochi, preludiya..*

ABSTRACT

Maqola O'zbekiston Respublikasining mashhur va zamonaviy kompozitori Xurshida Xasanovaning hayoti va ijodi, uning bastakorlik uslubi va O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi maxsus fortepiano sinfida o'rganiladigan asarlari, shuninglik bolalar uchun to'plamlari va asar tahlili haqida so'z etadi. Maqolada kompozitor tarafidan qo'yiladigan talablar, ijrochi tarafdan bajariladigan vazifalar, ijro nozikliklari va mayda detallarini o'rganishga chuqur emotsionallikni sezish, ijrochi fantaziyasi va tafakkurini har tomonlama faollashtirishi ta'kidlanadi.

Kompozitor Xurshida Xasanovaning nomi Respublikamizda yaxshi tanish. O'tgan asrning 80-90-yillarida samarali ijod eta boshlagan Xurshida Xasanova o'zining tamoman yangi ruhdagi bolalar uchun qo'shiqlari, fortepiano uchun asarlari ijrochilar qalbidan chuqur joy egallagan. Bastakorning ijodidagi kuychanlik, xalq kuylaridan an'analar ishlatishi, garmoniya, ritm singari musiqiy ifoda vositalari o'zining yangi individual kompozitorlik mahorati, zamonaviy uslubi va kayfiyati bilan ajralib turadi. Xurshida Xasanova (Tursunova) 1967-yilda Toshkent shahrida ziyolilar oilasida dunyoga keldi. Bastakorning musiqaga nisbatan bo'lgan yorqin iqtidorini sezgan ota-onasi Xurshida Xasanovani bolalar musiqa va san'at maktabiga o'qishga beradi.

Maktabda o'qib yurgan chog'laridayoq bo'lajak bastakor ijod bilan shug'ullana boshlaydi. 13 yoshida bastalagan "Pilla qurtim" nomli bolalar qo'shig'i muaffaqiyat qozonib, keyinchalik bolalar bog'chalarida o'rgatiladi. Shu davrdan boshlab, yosh bastakor Xurshida Xasanova o'zining hayotini to'ab musiqasana san'ati bilan bog'lashga qaror qiladi. 1982-1986-yillarda Xurshida Xasanova Xamza nomidagi Toshkent musiqa kollejida, 1986-1991-yillarda O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi "Bastakorlik" ixtisosligi bo'yicha O'zbekiston Davlat arbobi, atoqli kompozitor Mirhalil Mahmudov sinfida tahsil oldi. Ushbu bilim dargohida bastakor kompozitorlik ijodiyotining barcha jarhnlari bo'yicha ijod etishni o'rganib, diplom ishi sifatida fortepiano va simfonik orkestr uchun konsert yaratadi. 2001-2003-yillarda O'zbekiston Davlat Konservatoriyasining "Bastakorlik va cholg'ulashtirish" kafedrası dotsenti vazifasida talabalarga ijod sirlaridan saboq bermoqda. Bastakorning serqirra ijorkorligi uning yaratgan turki janrlardagi asarkaridan ma'lum. Murakkab asarlarni bastakash bilan bir qatorda Xurshida Xasanova o'z tajribasidan kelib chiqqan holda bolalar dunyosiga ham e'tibor qaratgan. Beg'ubor


bolalikni kuylovchi qo'shiqlari, ansambllari bolalar qalbidan chuqur joy egallagan. Bolalar uchun qo'shiqlar to'plamlarida, musiqiy asarni ishlash jarayonda bolalikning qaysi yoshida qanday musiqa shakllaridan foydalanish, qaysi yoshda ovoz imkoniyatini rivojlantirish hamda eng muhim vazifalar nimalardan iboratligi, haqida alohida to'xtatil o'tgan. Bastakor yosh avlodga mos ravishda ijod qilish, bolani san'at yo'nalishida yo'naltira bilish kabi vazifalarni ilgari surgan. O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlangan "Mening diyorim" nomli vokal to'plamidagi o'ziga xoslik shundaki asar bitta ovozda boshlanib so'ngra 2,3 ovozliklarga bo'linib ketishi, sinkopalashgan ritm ovoz, xor bilan parallel kelishi kabi usullar ishlatiladi. Akkompanimentning ro'li- ijro davomida ovoz bilan bitikkan holda xromatik rivojlanib borishi, lad-garmoniya kabi modulatsiyalarning tez tezdin almashib kelishi qo'shiqning yanada chiroyiga chiroy qo'shishi begumon.

Bastakorlik fortepiano ijodiga yuzlanadigan bo'lsak, undagi tuyg'u chuqurligi, kayfiyat boyligi, avvalo lirik kechinmalari e'tiborimizni tortadi. "Tovushlardagi orzular" (Dreams in sounds) prelyudiyasi lirik-falsafiy turdagi preludiyalarga mansub bo'lib, inson ongining emotsional-psixologik holatini ifodalaydi. Atrof-muhit hodisalarining rang-barangliga, tabiat go'zalligini his etish orqali qalbda uyg'onadigan turli kechinmalarga yo'naltirilgan bo'lib, individual kompozitorlik mahorati emotsional chuqur ekanligini ko'rsatadi. Bastakor aynan fortepiano asarlarida obrazli olami murakkabligini hisobga olib, turli izohlar ijrochilik uslubi tavsiyalari bilan nota matnini to'ldirmagan. Bu masalani ijrochining o'ziga ya'ni emotsional, uning shaxsiy estetik qarashlari, individual tasavvuri bilan ijro qilishlikni, ijrochilik tajribasi, bilim va ijrochilik ko'nlikmasiga havola etgan. Ijrochilarning ijodiy yetukligiga tayanib, Xurshida Xasanova unga o'zining individual kompozitorlik uslubi, badiiy ijro konsepsiyasini yaratish, tovushlarda o'z orzusini mujassam etish uchun erkinlik berdi. Shuningdek asarlarida aniq ko'rsatmalar yo'q, va uning tashqi ko'rinishi barokko erta klassitsizmdagi urtekst nashlarni eslatadi. Miniaturaning ixchamligiga qaramay, bastakor Xurshida Xasanova uni chuqur ma'no yaratuvchi mazmun bilan boyitgan, va ijrochidan mos ijroviy talqinni talab qiladigan qiziqarli badiiy olamni yaratgan. Turki shakldagi asarlar, xususan miniaturalar ustida ishlash ijrochi uchun yirik shakldagi asarlar ustida ishlash kabi muhim vazifadir. Bu jarayon ijrochilik detalkarini sayqallashga, pianizmni takomillashtirishga, musiqiy eshituvni rivojlantirishga, obrazga ongli ravishda kirib borish va zarur kayfiyatni yaratishga yordam beradi.

Bastakorning professor Pavlin Dokovskiya bag'ishlangan "Oy nuri" (Glare of the Moon) asarida ham emotsional chuqurlik, kuchli tovushning nozik qirralarini jilolash kabi ijrochilik mahoratiga yuzlangan. Asar nurli shabada kabi ijro etilib, asosiy mavzu pastki qatlamda beriladi. Preludiyaning boshlanishi lirik mushohada olamiga shung'iydi, yuqori registrdagi shaffof garmonik figuratsiyalar bexatar osoyishtalik obrazini mujassam etadi. Asardagi o'zgaruvchan ritm bilan poliritmiya parallel kelishi asarga yanada uyg'unlik bag'ish etadi. Sekundakkordli, dissonantli ohangdoshliklar ishlatilishi asarning asosiy funksiyasini bajaradi.



Marsh ritmidan uzoqlashmagan holda asarning hazilona xarakterini yana qo'llaydi, va asosiy mavzuga olib keladi. Asar chuqurlikdagi yohud ijrochi qalbidagi eng yirik emotsiyani talab etadi. Bastakor Xurshida Xasanova har bir notada o'z fikrini tuyg'ularini mujassam etgan va bir tomchi suvda ulkan olam mohiyatini aks ettirgan. Aynan shu asarlardan bilishimiz mumkinki, hattoki kichik miniatyuralarida ham mustaqil keng ma'no, noyoblilik mujassamdir. Xurshida Xasanovaning asarkarini o'rganish ijrochini kasbiy fikrlashga, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.



“Oy shulasi” prelyudiyasi mustaqil, to'laqonli asar hisoblanib, ijrochining xohishiga ko'ra siklning ikkinchi qismi sifatida ham ijro etilishi mumkin. Bastakorning bu prelyudiya shakli erkin, improvizatsiyaga xos tarzda rivojlanib, akkord tuzilmalarining turli garmoniyaga kirishishi bilan boyiydi va musiqiy tafakkur harakatiga yangi emotsional ranglar bag'ishlaydi.

Fo'ydalanilgan adabiyotlat:

1. А.ШАРИПОВА. ФОРТЕПИАННОЕ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ МАСТЕРСТВО ТАШКЕНТ 2024
2. X. Hasanova “MENING DIYORIM” (uslubiy qo'llanma) “MUSIQA” nashriyoti TOSHKENT 2011
3. X. Hasanova-Qo'shiqlar sehri Toldirilgan II nashri Toshkent “Muharrir” nashriyoti 2012
4. М.Файзиева прелюдия для фортепиано х.хасановой в классе специального фортепиано (статья)
5. Ф.Мухаммедова вопросы интерпретаций фортепианных миньтюр современных композитров (статья)